

7.5. AMALIY MASHG'ULOT.

UMURTQASIZLARNING QON AYLANISH SISTEMASINI MODELLASHTIRISH VA TAQQOSLASH

Maqsad: umurtqasiz hayvonlarning qon aylanish sistemasini o'rganish va taqqoslash. Moddalar transporti hayvonlarning qon aylanish sistemasi orqali ta'minlanadi.

Bizga kerak: rangli qalam, ruchka, plastilin, karton, qaychi.

Xavfsizlik qoidalari: 

Ishni bajarish tartibi:

1. Jadvalni to'ldiring.

	Yomg'ir chuvalchangi	Qisqichbaqa	O'rgimchak	Hasharot
Qon aylanish doirasi				
Yurak tuzilishi				
Yurak joylashuvi				
Moddalar almashinu- vidagi ishtiroki				


2. Yomg'ir chuvalchangi va suluv ninachining qon aylanish sistemasini Venn diagrammasi asosida tahlil qiling.



3. Ma'lumotlarni tahlil qiling.

№	Ma'lumot	To'g'ri/noto'g'ri
1.	O'rgimchakning yuragi bo'lmaydi.	
2.	Qisqichbaqa yopiq qon aylanish sistemasiga ega.	
3.	Ochiq qon aylanish sistemasida qon to'qima suyuqligi bilan aralashadi.	
4.	Qon aylanish sistemasi yurak va qontomirlardan iborat.	
5.	Hasharotlarning yuragi naysimon tuzilishga ega.	
6.	Yurak qisqarganda qon tomirlarga chiqariladi.	

4. Plastilindan ochiq va yopiq qon aylanish sistemasining modelini yasang.



Muhokama qiling va xulosa chiqaring.